

EKSPRIMENTAL JIGAR FIBROZINING ERTA DIAGNOSTIK ME`ZONLARI

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Laboratoriya ishi yo`nalishi
2-kurs magistrleri To`lanova Maxliyo

Annotatsiya: *Eksperimental jigar fibrozining erta bosqichlarini aniqlash kasallikning kechishini nazorat qilish va samarali davolash choralari belgilashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda turli biomarkerlar, instrumental tekshiruvlar hamda molekulyar usullar orqali fibrozning dastlabki belgilarini aniqlash imkoniyatlari ko`rib chiqildi. Ushbu yondashuvlar yordamida patologik jarayonni vaqtida to`xtatish va reabilitatsiya choralari belgilash osonlashadi. Ilmiy ish jigar kasalliklarini erta tashxislashda yangi yondashuvlar ishlab chiqishga asos bo`la oladi.*

Kalit so`zlar: *Jigar fibrozi, Fibroz biomarkerlar, Gistopotologik baxolash, Elastografiya(FibroScan), Biopsiya, Noinvaziv instrumental usullar.*

TADQIQOT MAQSADI

Eksperimental jigar fibrozi bu laboratoriya sharoitida (odatda hayvonlarda) sun`iy ravishda jigar to`qimasida fibroz (ya`ni biriktiruvchi to`qima o`sishi) holatini chaqirish orqali o`rganiladigan modeldir. Bu model insonlardagi jigar kasalliklarini, ayniqsa surunkali jigar kasalliklari oqibatida yuzaga keladigan fibroz va sirroz kabi holatlarni chuqur o`rganish orqali erta diagnostika qilish imkon yaratadi.

Eksperimental jigar fibrozini chaqirish uchun quyidagi omillar qo`llaniladi:

1. Kimyoviy moddalar:

Karbon tetraxlorid (CCl_4) – eng keng qo`llaniladigan toksik modda, jigarda oksidlovchi stress chaqirib, hujayralarni shikastlaydi.

Tioasetamid (TAA) – gepatositlar nekroziga olib kelib, yallig`lanish va fibrozga sabab bo`ladi.

Dimetilnitrozamin (DMN) – jigarni toksik shikastlab, fibrozga olib keladi.

2. Xronik alkogol iste`moli modeli:

Hayvonlarga uzoq muddat spirtli ichimliklar berish orqali jigar zararlanishi va fibroz modellashtiriladi.

3. Boshqa usullar:

Safro yo`llarining bog`lanishi (bile duct ligation) – xolestatik jigar fibrozini keltirib chiqaradi. Virusli infeksiyalar (masalan, rekombinant adenoviruslar yordamida) – ba`zida virusli hepatitni modellashtirish uchun ishlatiladi.

Eksperimental jigar fibrozining erta bosqichlarida kechadigan morfologik, biokimyoviy va elastografik o`zgarishlarni aniqlash orqali erta diagnostik mezonlarni ishlab chiqish. Tadqiqotda fibrozning boshlang`ich fazalarida ro`y beradigan gistologik (to`qima darajasidagi), biokimyoviy (qon zardobidagi markerlar) va instrumental

(masalan, FibroScan orqali) o'zgarishlarni aniqlash hamda ularning fibroz darajasi bilan bog'liqligini baholash ko'zda tutiladi. Shuningdek, erta bosqichlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yuqori sezuvchanlikka ega biomarkerlar (masalan: hyaluronan, TIMP-1, PIIINP) va elastografik ko'rsatkichlar asosida diagnostik mezonlar to'plamini shakllantirish ham tadqiqot maqsadiga kiradi.

Tadqiqot vazifalari. Fibrozning erta bosqichlarini aniqlashda biokimyoviy markerlarning ahamiyatini baxolash.

Ultrasonografiya va elastometriya usullarining diagnostik imkoniyatlarini o'rganish.

Klinik va laborator natijalarni solishtirish orqali ishonchli diagnostika algoritmini taklif etish.

Erta bosqichdagi fibroz belgilarini aniqlash:

Kasallik rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kuzatiladigan biokimyoviy va morfologik o'zgarishlarni aniqlash.

Biokimyoviy markerlarning diagnostik ahamiyatini baholash:

ALT, AST, hialuron kislota, GGT kabi ko'rsatkichlarning diagnostik sezuvchanligini tahlil qilish.

Instrumental usullarning imkoniyatlarini o'rganish:

Elastografiya, ultrasonografiya va boshqa kam invaziv usullar orqali jigar to'qimasining o'zgarishini baholash.

Biokimyoviy va instrumental natijalarni taqqoslash:

Turli diagnostik yondashuvlar o'rtasida o'zaro muvofiqlik darajasini aniqlash.

Tadqiqot metodlari.

Fibroz induksiyasi uchun CCl₄ (uglerod tetraxlorid) modelashtirilgan hayvonlarda qo'llanildi;

ALT, AST, GGT, hialuron kislota kabi markerlar aniqlandi;

Jigar elastikligini baholash uchun elastografiya ishlatildi;

Gistologik tahlil orqali fibroz darajalari tasdiqlandi.

Ilmiy yangilik.

Tadqiqotda jigar fibrozining erta bosqichlarini aniqlashda hialuron kislota darajasi va elastografiya ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi aniqlanib, erta diagnostika uchun kompleks yondashuv taklif qilindi.

Amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalari asosida jigar fibrozining erta diagnostikasi uchun samarali va kam invaziv usullar majmuasi ishlab chiqildi, bu esa klinik amaliyotda kasallikni erta aniqlash va davolashni imkonini beradi.

XULOSA

Eksperimental tadqiqot natijalari jigar fibrozining erta aniqlanishi uchun biokimyoviy markerlar va zamonaviy instrumental usullarning integratsiyalashuvi

samarali ekani va ular asosida diagnostika algoritmlari ishlab chiqish mumkinligini ko'rsatdi